


110. Sonni 8 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
jahon tillari.

Bo'linuvchi, bo'luvchi,
bo'linma.



Kvadratlarni
shunday
joylashtiringki,
natijada ikkita
kvadrat hosil
bo'lsin



- Diagrammada bir nechta ma'lum tillar belgilangan.
Son 1000 tadan qancha miqdordagi odamlar uchun til ona tili hisoblanishini ko'rsatadi.
Qaysi til eng ko'p tarqalgan?
Xitoy tilida ispan tilidagidan qancha ko'p odam gaplashadi.
Diagramma bo'yicha yana boshqa savollar o'ylab topping va ularni sinfdoshlaringizga bering.



- 8 ga bo'linadigan sonlarni topping. Sonlarni 8 ga bo'lish misollarini yozing.

27 81 56 30 42 58 48 22 32



- Topshiriqni zanjir bo'ylab bajaring.

$$\begin{array}{ccccccccc}
 45 + 27 & \rightarrow & : 8 & \rightarrow & + 26 & \rightarrow & : 7 & \rightarrow & \cdot 2 \\
 45 + 35 & \rightarrow & : 8 & \rightarrow & \cdot 7 & \rightarrow & - 54 & \rightarrow & : 8
 \end{array}$$



4. Noma'lumlarning qiymatlarini tanlang.

$x : 7 = 8$

$64 : y = 8$

$t \cdot 8 = 72$



5. Maktabda uchta til: ingliz, nemis va fransuz tillari o'rganiladi. Nemis tili bilan 198 kishi, fransuz tili bilan 38 nafar ko'p kishi shug'ullanadi. Agar maktabda 810 nafar o'quvchi o'qisa, necha kishi ingliz tili bilan shug'ullanadi?



6. Guruhda 30 nafar sayyoh Angliya va Fransiyadan kelgan. 16 nafar sayyoh fransuz tilida, 23 nafar sayyoh esa ingliz tilida gaplashadi. Necha nafar sayyoh ikkala tilda ham gaplashadi?



7. Misollarni yeching va O'rta Osiyodagi yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan noyob tillardan birining nomini toping.

A $(64 : 8) + 17$

I $(80 - 8) : 8$

A $(13 + 43) : 8$

P $51 - (32 : 8)$

R $45 - (80 : 8)$

Y $(16 : 8) - 2$

47	25	35	0	7



8. Har oy dunyoda 2 ta til yo'qolib ketadi. Bir yilda nechta til yo'qolib ketadi?



9. Ingliz tili to'garagiga 32 kishi, nemis tili to'garagiga esa 4 marta kam kishi qatnashadi. Fransuz tili to'garagiga ingliz tili to'garagiga qatnashganidan 14 nafar kam kishi yozilgan. Bu uch to'garakka hammasi bo'lib necha kishi qatnashadi?